

for quality strengthening  
and health

# TAMADDUN URI



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal (54) ISSN 2181-8258

3-son, 2024



*Handwritten signature or text in blue ink.*

Devonxona

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi "Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**

**O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi**

Qoraqalpog' davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY'ATI:**

**BOSH MUHARRIR:**

Munavvara QURBONBOYEVA

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEVA, s.f.d., prof.

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xalil Ismayil o'g'lu Ismayilov, t. f.d, prof

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, Elnasaf fanlari doktori,

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının

(AMEA) müxbir üzvü

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Shohida SODIQOVA, sots.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas o'g'lu Rüstamov, p.f.d, prof.

Ozoqboj YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Anvar ISMOILOV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Rəna Həmid qızı Qədirəva, psixol.f.d., prof

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilbar URABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Qosimboy QABULOV, psixol.f.d., (DSc)

Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960. ISSN 2181-8258. 30.03.2024-yilda bosishga ruxsat berildi. "ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona. Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2024-yil, 3-son (54).

**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №23.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



## TARIX

<b>Matyakubov Nurbek Raimberganovich.</b> Mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlash siyosati.....	5
<b>Махмудов Умрбек Бахтиёрович.</b> Қанғ давлати пойтахти юзасидан тадқиқотлар таҳлили.....	8
<b>Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich.</b> O'zbekiston SSRda yaratilgan ijtimoiy ta'minot tizimi va uning huquqiy asoslari xususida.....	18
<b>Altiboyev Yuldosh Ergash o'g'li.</b> Bobur Mirzoning Movarounnahr taxti uchun olib borgan janglari oqibatida yuz bergan qarshi qirg'ini haqida mulohazalar.....	22
<b>Rashidova Aziza Aminboyevna.</b> Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy masalalar.....	25
<b>Eshchanov Hurmat Matnazarovich.</b> O'zbekistonning bronza davri mudofaa tizimi haqida ayrim mulohazalar.....	94
<b>Abdunosirova Ozodaxon B.</b> Sulton Abu Said Mirzo xonadonining fan, adabiyot va san'at sohalaridagi ishtiroki.....	104
<b>Karimov Umrbek Davronbekovich.</b> Mustaqillik yillarida Xorazm vohasi o'zbeklarining turmushida suv bilan bog'liq urf-odatlarining o'rganilishi.....	111
<b>Tursunov Anvar Saypullayevich.</b> O'zbekistonning janubiy shaharlari tavsifi haqida.....	115
<b>Рахимов Асрор Э.</b> Қарши чўлида ирригация иншоотларининг қурилиш тарихи (1950 – 1980-йиллар).....	136
<b>Jo'rayeva O'lmas Choriyevna.</b> Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asarida tarixiy voqealarning yoritilish uslubi.....	152
<b>Annayeva Zarifa Musurmonqulovna.</b> O'zbekistonda ekologik muammolar davlat siyosati darajasida.....	193
<b>Ashurova Ulg'o'zi Isroil qizi.</b> Koreyslarning O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligidagi muvaffaqiyatlari.....	199
<b>Жаҳонгирров Бурхон Бўронович.</b> Ўзбекистон ва Жанубий Корея муносабатлари.....	214
<b>Pardayev Toshkentboy Rajabovich.</b> O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot mavzusuning nazariy-metodologik asoslari.....	237
<b>Egamberganova Matluba J.</b> Xorazm vohasi turkmanlarining milliy liboslari: an'anaviylik va zamonaviylik.....	240
<b>Турсунов Нурулло Нарзуллаевич.</b> Сурхон воҳасида фарзанд туғилиши билан боғлиқ маросимлар.....	278
<b>Мадреймов Берик Джалгасбаевич, Рзаева Манзура Абатовна.</b> Устюртнинг сўнгги палеолит даври тошга ишлов бериш устахонасининг функционал аҳамияти.....	287
<b>Karimov Akbar.</b> Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida yoshlar tuzilmalarining faoliyati.....	291
<b>Choriyev Sanjar Hamzayevich.</b> Yozuvchi Nodir Normatov ijodining 70-80-yillar o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni.....	302

## YURIDIK FANLAR

<b>Sharipov Asrorjon Safar o'g'li.</b> Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq jinoyatni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar.....	15
<b>Bahodir TO'RAYEV.</b> Huquqiy davlatda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning o'rni.....	254

## FALSAFA

<b>Rahmanov Bahodir U.</b> Falsafiy merosni o'rganishda sinergetik yondashuvning ahamiyati va istiqbollari.....	29
<b>Xakimov Alisher Olimjonovich.</b> "Ma'rifat" – tasavvuf ta'limotining bilish nazariyasi.....	84
<b>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна.</b> Бурч ва масъулият тушунчаларининг тарихий-назарий, анъанавий ва замонавий talқини.....	97
<b>Saurov Ravshonbek R.</b> Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning falsafiy-kratologik muammolari.....	108
<b>Qurbonov Asqar Bahodir o'g'li.</b> Badiiy adabiyot: falsafiy tahlil, mazmun va mohiyat dialektikasi.....	119
<b>Турдибоев Бозор Худойбердиевич.</b> Тарихий жараёнларнинг корреляцион-функционал заминлари.....	149
<b>Boltayev Farrux Farxodovich.</b> Globallashuv jarayonida til madaniyati nazariyasining falsafiy tahlili.....	176
<b>Halimov Sherzod Igamberdiyevich.</b> Migrantlar ijtimoiy integratsiyasining falsafiy tahlili.....	180
<b>Азизқулов Акрам Абдурахмонович.</b> Самарқанд тарихига оид нодир манба.....	183
<b>Xodjayeva Dilorom Yunusovna.</b> Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash – jamiyat barqarorligining asosiy omili.....	208
<b>Шамсутдинова Нигина К.</b> Интеллектуальный суфизм Абу Али Ибн Сины в контексте античной философии.....	223
<b>Darmonov Aliyorbek Abdualilovich.</b> Isohotlarning yangi bosqichida yoshlarda yuksak mas'uliyat va tahdidbardoshlik tuyg'usi kamolotini oshirish uslub va vositalari.....	232
<b>Джалилова Умида Ифтихоровна.</b> Философский анализ концепции гуманизма Алишера Навои.....	243
<b>Jasur SHAKAROV.</b> Raqobat madaniyatining o'zbek milliy-ma'naviy falsafasi taraqqiyotidagi o'rni.....	273

## PSIXOLOGIYA

<b>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna.</b> Sportchilarni musobaqa jarayoniga tayyorlashning psixologik aspektlari.....	81
<b>Hayitov Qobil Qurbonovich.</b> Sust o'zlashtiruvchi talabalarning qadriyatlarini yo'nalishi xususiyatlari.....	144
<b>Isxakova Shahlo Ismoilovna.</b> Kross-madaniy tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili.....	267
<b>Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi.</b> Ko'p bolali oila farzandlarining psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar.....	314

## BIZNI IJTIMOY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 - "Falsafa", 10.00.00 - "Filologiya" ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 - "Yuridik fanlar", 13.00.00 - "Pedagogika", 19.00.00 - "Psixologiya" ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

#### JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

#### Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

#### Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

#### Sahifalovchi-bezovchi:

G'iyosiddin O'NAROV

#### Texnik muharrir:

Ulug'bek SAIDOV

#### Manzilimiz:

Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt:

<https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: [tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram kanali:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55,

(+99897) 355 75 40.

#### PEDAGOGIKA

<b>Daniyeva Yarkin Choriyevna.</b> Yengil atletikachi talaba-sportchilar funksional holatining tuzilishi.....	52
<b>Alaudinova Dilnoza Rustam qizi.</b> Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	55
<b>Radjapova Dilafruz Amanturdiyevna.</b> Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.....	58
<b>Xajiyeva Maksuda Sultanovna.</b> Abulqosim Firdavsiyning pedagogik va falsafaiy g'oyalari.....	61
<b>Raximova Feruza Shavkatovna, Temirova Xurshida Turobovna.</b> Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilishning ijtimoiy ahamiyati.....	90
<b>Ashurova Dilrabo Isroil qizi.</b> Abduqodir Shakuriyning didaktik qarashlaridagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning ahamiyati.....	196
<b>Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriyati.....	202
<b>Рустамов Джамшид Эргашевич.</b> Роль инновационных технологий в формировании молодежного мировоззрения в современном образовательном процессе: вызовы и перспективы.....	218
<b>Tobanazarov Azamat Pirnazarovich.</b> Maktab adabiy ta'limida konstruktiv o'qitishni qo'llash masalasi.....	250
<b>Seitnazarov Kuanishbay K., Mambetkarimov Bayniyaz M.</b> Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarini qo'llash.....	

#### FILOLOGIYA

<b>Avezova Anajon Ko'paysin qizi.</b> O'zbek va turk tillarida tub va yasama antroponimlar.....	34
<b>Matnazarova Xayriniso.</b> Og'zaki muloqotda diskurs tenori.....	38
<b>Rashidov Otabek Ziyodullayevich.</b> O'zbek tilshunosligida harbiy terminlarning ishlatilishi.....	42
<b>Karimova Zuxra Ulugbekovna.</b> Ingliz va o'zbek tillari maqollarida "do'stlik" konseptining ijobiy ma'no shakllari.....	45
<b>Оромиддинова Дилдора Пардабоевна.</b> Иноязычные термины в русской литературе.....	
<b>Abdurahmanova Ranokhan Kosimovna.</b> Stylistic devices in the lexicon of the german language.....	64
<b>Азимова Амира Муминовна.</b> Особенности перевода корейских новостных текстов (на примере общественно-политических новостей телеканала MBC).....	67
<b>Qodiriy Mahzuna.</b> English translations of the depiction of people and characters through visual means of the work "Otkan kunlar".....	70
<b>Хакимова Максадхон Дилшодбековна.</b> Лирик асарларда бадий услуб масаласидаги қарашларнинг таснифий таҳлили.....	73
<b>Намуна Назарова.</b> Ўзбекнинг айвони – эзгуликлар айвони.....	78
<b>Absalamova Gulmira Sharifovna.</b> Mishel Monten ijodida insho va allegoriya janrining tavsifiy xususiyatlari.....	122
<b>Qobilova Nargiza Eshimovna.</b> Dunyo tilshunosligida abzas tadqiqi.....	126
<b>Soatov Ibrohimbek Alisherovich, Temirova Muattar Amirkul qizi.</b> Kahoot-dan ESL va EFL sinflarida doimiy baholash vositasi sifatida foydalanish.....	129
<b>Azimova Maxfuza Hasanovna.</b> Bo'lajak chet tili o'qituvchilari muloqot madaniyatini shakllantirishda innovatsion metodlarning o'rni va ahamiyati.....	133
<b>Husanova Fazilat Jahongirovna.</b> Qarindoshlik terminlarining semantikasi va shakliy strukturasi.....	155
<b>Urinova Tursunoy Urin qizi.</b> Libos dizaynining maxsus soha sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi ahamiyati.....	158
<b>Навбатова Раъно Ходжимуратовна.</b> Специфика развития малого эпического жанра в русской и узбекской прозе начала XX века.....	161
<b>Холдорев Чоршанби Холдоревич.</b> Трансформация русского и узбекского героев в 80-90-годах XX века.....	164
<b>Vuzrukova Maxina.</b> Turistik diskursning semiotik tarkibi.....	167
<b>Usmonova Mehriniso Umarovna.</b> Grammatikani o'rgatish chet tillarini o'rganishning bir qismi sifatida.....	171
<b>Махмадиева Гулчехра Саит-Абдуллаевна.</b> Технология изучения русского языка как иностранного посредством иммерсивных образовательных программ.....	174
<b>Qorayev Sherxon P.</b> Ashtarxoniylar sultoni olim va shoir Subhonqulixon ijodining o'ziga xos xususiyatlari.....	187
<b>Razzoqova Shahlo Baxtiyor qizi.</b> Jargon so'zlarning yoshlar ongiga ta'siri: foydalanishdagi xatolar va oqibatlari.....	190
<b>Gulruh Ne'matova.</b> "Uzbekistan airways" jurnali turizm sohasiga ixtisoslashgan nashr sifatida.....	211
<b>Шерматов Иззат Хамраевич.</b> Семантические характеристики некоторых диалектных фразеологизмов русского и узбекского языков.....	228
<b>Masharipov Mansurbek Masharipovich.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida morfologik okkazonalizmlarning nutqiy voqelanishi.....	245
<b>Aminova Nargiza Istamovna.</b> "Chol va dengiz" qissasida adabiy qahramon ichki monologining til xususiyati.....	259
<b>Agzamova Dildora Bahodirjanovna.</b> Ingliz va o'zbek tillari olamning lisoniy manzarasi (ilmiy varianti)da xotira kategoriyasining tarkibiy tuzilishi.....	263
<b>Dabilov Perdeg'aliy Abatbayevich.</b> Ibroyim Yusupovning milliy xarakter yaratish mahorati.....	270
<b>Rahmatova Shalola S.</b> Ingliz va o'zbek tillarida madaniy qadriyatlarini og'zaki ifodalashning leksik-semantik vositalari.....	281
<b>Abdullayeva Shahnoza Rahimjon qizi.</b> Tilshunoslikda konsepsiyani amalga oshirish shakllari va turlari.....	284
<b>Жумаева Шахло Суюновна.</b> Освещение проблемы идеального человека в творчестве Алишера Навои.....	295
<b>Allamberganov Anvar Erkabayevich.</b> Milliy koloritni talqin qilishda maqollarning o'rni.....	299
<b>Катаева Шахноза Альбертовна.</b> К вопросу синтаксических функций и особенностей имен существительных в именительном падеже русского и узбекского языков.....	310

## TABLE OF CONTENTS

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational,

literary and artistic magazine

**Founders:** Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of

Berunius"

**Our colleagues:** Academy of Sciences of

the Republic of Uzbekistan

Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

### EDITORIAL BOARD:

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAYEVA

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zabikhulla SAIPOV, s.sc.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof

Anvar ABDULLAYEV, ist.sc.d, dots.

Gavkhar DURDIYEVA, arch.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

Azerbaijan National Academy of Sciences

(AMEA) Corresponding Member

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Shokhida SADIGOVA, sots.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof.

Daniyor YULDASHEV, Phil.sc.d (DSc)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Fərrux Abbas oğlu Rüstəmov, p.sc.d, prof.

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAYEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, of art.sc.c., (PhD),

k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, phil.sc.d., (PhD)

Anvar Ismailov, s.f.f.d., (PhD), k.i.x

Gayrat MAMBETKADIROV, s.sc.d.

Rəna Həmid qızı Qədirova, psix.sc.d., prof

Nargis ATABAYEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

Dilbar URAZBAYEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Qosimboy KABULOV, Doct. of sc. Psychol.

Mels Kabulov, med.sc.d., dalil.

### HISTORY

<b>Matyakubov Nurbek Raimberganovich.</b> Housing policy in our country.....	5
<b>Makhmudov Umrbek Bakhtiyorovich.</b> Analysis of research on the capital of the state Kang.....	8
<b>Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich.</b> Regarding the social security system created in the Uzbek SSR and its legal foundations.....	18
<b>Altbayev Yuldash Ergashovich.</b> Comments on Babur Mirza's massacre which happened as a result of battles for the Movarounnahr throne.....	22
<b>Rashidova Aziza Aminboyevna.</b> Social issues in the new Uzbekistan development strategy.....	25
<b>Eshchanov Khurmat Matnazarovich.</b> Some comments on the bronze age defense system of Uzbekistan.....	94
<b>Ozodakhon Abdunosirova.B.</b> Participation of the house of sultan Abu Said Mirza in the fields of science, literature and art.....	104
<b>Karimov Umrbek Davronbekovich.</b> Study of customs related to water in the life of the uzbeks of the Khorazm oasis during the years of independence.....	111
<b>Tursunov Anvar Saypullayevich.</b> About the description of the southern cities of Uzbekistan.....	115
<b>Rakhimov Asror E.</b> History of the construction of irrigation instructions in the Karshi desert (1950s - 1980s).....	136
<b>Jurayeva Ulmas Choriyevna.</b> Style of illumination of historical events in "Masnaviy" by Jalaliddin Rumi.....	152
<b>Annaeva Zarifa Musurmonqulovna.</b> Environmental problems in Uzbekistan at the level of state policy.....	193
<b>Ashurova Ulguzi I.</b> Korean successes in agriculture of the Uzbekistan SSR.....	199
<b>Jakhangirov Burkhan Buronovich.</b> Relations of Uzbekistan and South Korea.....	214
<b>Pardayev Tashkentboy Rajabovich.</b> Theoretical and methodological basis of the topic of socio-economic and cultural life in the southern regions of Uzbekistan.....	237
<b>Egamberganova Matluba J.</b> National dresses of the turkmen of the Khorazm oasis: raditionality and modernity.....	240
<b>Tursunov Nurullo Narzullaevich.</b> Ceremonies related to the birth of a child in Surkhan.....	278
<b>Madreymov Berik Djalgasbaevich, Rzaeva Manzura Abatovna.</b> The functional significance of the Paleolithic stone-working workshop of Ustyurt's end.....	287
<b>Akbar KARIMOV.</b> Activities of youth structures in Surkhandarya region during the years of independence.....	291
<b>Choriyev Sanjar Kh.</b> The role of writer Nodir Normatov in the history of Uzbek literature in the 70s and 80s.....	302

### PHILOSOPHY

<b>Rakhmanov Bahodir U.</b> The significance and prospects of a synergetic approach to the study of philosophical heritage.....	29
<b>Khakimov Alisher Olimjonovich.</b> "Enlightenment" is the theory of knowledge of the doctrine of sufi.....	84
<b>Karimova Gulchekhra Abdukarimovna.</b> Historical-theoretical, traditional and modern interpretation of the concepts of duty and responsibility.....	97
<b>Saurov Ravshonbek R.</b> Philosophical and cratological problems of the formation of a social state in the new Uzbekistan.....	108
<b>Qurbanov Asqar, son of Ba.hodir.</b> Fiction: philosophical analysis, dialectics of content and essence.....	119
<b>Turdiyev Bozor Khudoyberdievich.</b> Correlation-functional grounds of historical processes.....	149
<b>Boltayev Farrukh Farkhodovich.</b> Philosophical analysis of the theory of language culture in the process of globalization.....	176
<b>Khalimov Sherzod Igamberdiyevich.</b> Philosophical analysis of the social integration of migrants.....	180
<b>Azizkulov Akram Abdurakhmonovich.</b> A rare source on the history of Samarkand.....	183
<b>Khodjayeva Dilorom Yunusovna.</b> Preparing young people for social life is the main factor of society stability.....	208
<b>Shamsutdinova Nigina Karimovna.</b> The intellectual sufism of Abu Ali Ibn Sina in ancient philosophy.....	223
<b>Darmonov Aliyorbek Abdukhailovich.</b> Methods and means of improving the maturation of a high sense of responsibility and menace in young people at a new stage of reforms.....	232
<b>Jalilova Umida Iftikhorovna.</b> Philosophical analysis of Alisher Navoi's concept of humanism.....	243
<b>Jasur SHAKAROV.</b> The role of competitive culture in the development of uzbek national spiritual philosophy.....	273

### JURISPRUDENCE

<b>Sharipov Asrorjon S.</b> Cases to be proven in the investigation of the crime of cultivation of prohibited crops.....	15
<b>Bakhodir TORAYEV.</b> The role of legal culture and legal education in the legal state.....	254

### PSYCHOLOGY

<b>Eshnazarova Farida Jurakulovna.</b> Psychological aspects of preparing athletes for competition process.....	81
<b>Khayitov Kobil Kurbanovich.</b> Characteristics of value orientation of slow assessment students.....	144
<b>Iskhakova Shakhlo Ismailovna.</b> Socio-psychological analysis of cross-cultural concept.....	267
<b>Yangibaeva Dildorakhon R.</b> Socio-cultural factors affecting the psychological development of children of multiple families.....	314

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843.

According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 - "History", 09.00.00 - "Philosophy", 10.00.00 - "Philology" according to; 2023 of the OAK Board

According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. - "Legal Sciences", 13.00.00. - "Pedagogy", 19.00.00. "Psychology"

**COMMUNITY COUNCIL:**

Sirojiddin SAYID  
Muhammad Ali  
Kengesboy KARIMOV  
Iqbal MIRZA  
Kurban SHONIAZOV  
Orozboy ABDURAHMANOV  
Muratboy JUMANOV

**Literary Advisor:**

Gulistan MATYOQUBOVA

**Artist:**

Alibek ABDURAHMANOV

**Page editor:**

Ghiyaziddin O'NAROV

**Technical Editor:**

Ulugbek SAIDOV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>  
e-mail:

[tamaddunnuri1@gmail.com](mailto:tamaddunnuri1@gmail.com).

Telegram channel:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55,  
(+99897) 355 75 40.

Paper size 60x84 ¼. Publisher's scorecard 6.5. The index is 960. ISSN 2181-8258. Allowed to click on 30/03/2024

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2024, No. 3 (54).

**PEDAGOGY**

**Daniyeva Yarkin Choriyevna.** Structure of the functional status of student-athletes.....52  
**Alaudinova Dilnoza Rustam kizi.** The use of digital technologies in the development of communicative competence of future english language teachers.....55  
**Radjapova Dilafuz .A.**The importance of developing the professional competence of future engineers.....58  
**Khajiyeva Maksuda Sultanovna.** Pedagogical and philosophical ideas of Abulkasim Firdavsi.....61  
**Rakhimova Feruza Shavkatovna, Temirova Khurshida Turobovna.** The social significance of the involvement of children with disabilities in inclusive education in our country.....90  
**Ashurova Dilrabo Isroil k.** The importance of person-oriented education in the didactic views of Abduqadir Shakuri.196  
**Khudoyberganov Doniyor Yangiboys son.** The need to develop the cognitive competence of younger students.....202  
**Rustamov Jamshid Ergashevich.** The role of innovative technologies in the formation of youth worldview in the modern educational process: challenges and prospects.....218  
**Tobanazarov Azamat P.** The question of the application of constructive teaching in school literary education.....250  
**Seitnazarov Kuanishbay K., Mambetkarimov Bayniyaz M.** Application of game technologies in the educational process in higher education institutions.....

**PHILOLOGY**

**Avezova Anajon Kopaysin kizi.** The structural and derivative anthropoymys in uzbek and turkish languages.....34  
**Matnazarova Khayriniso.** Tenor of discourse in spoken communication.....38  
**Rashidov Otabel Ziyodullaevich.** Use of military terms in uzbek linguistics.....42  
**Karimova Zukhra Ulugbekovna.**Positive shade meaning of the concept of "friendship" in english and uzbek proverbs45  
**Oromiddinova Dildora Pardaboeyvna.** Foreign language terms in russian literature.....49  
**Abdurahmanova Ranokhan Kosimovna.** Stylistic devices in the lexicon of the german language.....64  
**Amira Muminovna Azimova.** Features of translating korean news texts (based on the example of social and political news of mbc tv channel).....67  
**Kodiriy Makhzuna.** English translations of the depiction of people and characters through visual means of the work "Otkan kunlar".....70  
**Khakimova Maksadkhan Dilshodbekovna.** Classificational analysis of artistic style In poetic works.....73  
**Namuna Nazarova.** The porch of the uzbek is the porch of virtues.....78  
**Absalamova Gulmira. Sh.**Descriptive characteristics of essay and allegory genre in michel montain's creation.....122  
**Kabilova Nargiza Eshimovna.** Paragraph research in world linguistics.....126  
**Soatov Ibrohimbek Alisherovich, Temirova Muattar Amirkul kizi.** Employing Kahoot as an Ongoing Assessment Tool in ESL and EFL Classrooms.....129  
**Azimova Makhfuza Hasanovna.** The role and importance of innovative methods of forming communication culture in future foreign language teachers.....133  
**Khusanova Fazilat Jakhongirovna.** Semantics and structure of kinship terms.....155  
**Urinova Tursunoy Urin kizi.** The significance of clothing design as a special field in english and uzbek.....158  
**Navbatova Rano Khodzhimuratovna.** Specifics of the development of the small epic genre in russian and uzbek prose of the early XXth century.....161  
**Khodorov Chorshanbi Khodorovich.** Transformation of russian and uzbek heroes in the 80-90s of the XX century.....164  
**Buzrukova Makhina.** Semiotic composition of tourist discourse.....167  
**Usmonova Mekhriniso Umarovna.** Teaching grammar as a part of learning foreign languages.....171  
**Makhmadieva Gulchehra Sait-Abdullaevna.** Technology of learning russian as a foreign language through immersive educational programs.....174  
**Karayev Sher Khan Polatkhanovich.** Distinctive characteristics of the creation of the sultan of ashtarkhanis, scientist and poet Subkhonqulikhon.....187  
**Shahlo Razzakova Bakhtiyor kizi.** The Influence of Slang Words on the Minds of Young People: Usage Errors and Implications.....190  
**Gulrukh Nematova.** "Uzbekistan airways" magazine as a specialized publication in the field of tourism.....211  
**Shermatov Izzat Khamraevich.** Semantic characteristics of some dialectal phraseologists of the russian and uzbek languages.....228  
**Masharipov Mansurbek Masharipovich.** Speech performance of morphological occasionalisms in Mahmudkhoja Behbudi's publicism.....246  
**Aminova Nargiza Istamovna.** The language characteristics of the literary hero's internal monologue in the story "The old Man And The Sea".....259  
**Aghzamova Dildora B.** linguistic picture of the world (scientific version) of the english and uzbek languages.....263  
**Dabilov Perdegaly Abatbaevich.** Broymim Yusupov's skill in creating a national character.....270  
**Rahmatova Shalola Sapparboyevna.** Lexical-semantic means of verbalizing cultural values in english and uzbek.....281  
**Abdullayeva Shahnoza Rahimjonovna.** Forms and types of the realization of a concept linguistics.....284  
**Jumaeva Shakhlo Suyunovna.** Coverage of the problem of the ideal person in the works of Alisher Navoi.....295  
**Allamberganov Anvar Erkabayevich.** The role of proverbs and phrases in the interpretation of national color.....299  
**Kataeva Shakhnoza Albertovna.** On the issue of syntactic functions and features of nouns in the nominative case of the russian and uzbek languages.....

## MAHMUDHO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA MORFOLOGIK OKKAZIONALIZMLARNING NUTQIY VOQELANISHI

*Masharipov Mansurbek Masharipovich, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Urganch innovatsion universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori*

## SPEECH PERFORMANCE OF MORPHOLOGICAL OCCASIONALISMS IN MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S PUBLICISM

*Masharipov Mansurbek Masharipovich, doctor of philosophy in philological sciences (PhD), Urgench innovation university vicerector for educational affairs*

## РЕЧЕВАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ОККАЗИОНАЛИЗМОВ В ПУБЛИЦИСТИКЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

*Машиарипов Мансурбек Машиарипович, доктор философии филологических наук (PhD), проректор по учебной работе Ургенчского инновационного университета*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'rifatparvar jadid adibi Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik asarlari matnidagi morfologik okkazional yasalmalarning mohiyati, yaratilish sabablari, tiplari, uslubiy qo'llanishi hamda vazifalari haqida nazariy fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** leksik-semantik voqelanish, uzual ma'no, okkazional ma'no, kontekstual ma'no, individual ma'no, leksik qo'llash, barqarorlashganlik, ijtimoiy shartlanganlik, semantik tarkib, semantik qurshov.

**Abstract:** The article enlightens theoretical ideas about the essence of morphological occasional constructions, the reasons for creation, types and methodological application and functions in the journalistic works of the enlightened jadid Mahmudhoja Behbudi.

**Key words:** lexical-semantic realization, common meaning, occasional meaning, contextual meaning, individual meaning, lexical application, stabilization, social conditioning, semantic content, semantic environment.

**Аннотация:** В статье высказаны теоретические мысли о сущности, причинах создания, типах, стилистическом использовании и функциях морфологических окказиональных созданий в тексте публицистических работ просветительского деятеля-джадида Махмудходжи Бехбуди.

**Ключевые слова:** лексико-семантическое изменение, обычное значение, окказиональное значение, контекстуальное значение, индивидуальное значение, лексическое использование, устойчивость, социальная обусловленность, семантический состав, семантическая оболочка.

**Kirish.** Tilning eng faol va o'zgaruvchan sathlaridan biri so'z yasalishi sathidir. Til lug'at tarkibidagi so'zlarning me'yor asosidagi lisoniy qonuniyatlar asosida ham, nutqiy faoliyatdagi sinxron o'zgarishlar asosida ham, shaxsiy ijodiy qo'llanishlar imkoniyati natijasida ham yasalishi aks etgan holatlarni ko'rish mumkin. Morfologik okkazionalizmlarning yasalishi o'zbek tilida mavjud so'z yasash an-

dozalari, vositalari, so'z yasash materiali va shart-sharoitlari nuqtayi nazaridan g'ayriodatiyligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bunday yasalish o'zbek tilida mavjud so'z yasash vositalari va qonun-qoidalarining ham, so'z morfem tarkiblanishidagi fonomorfologik va semantik o'zgarishlar (transformatsiya, deformatsiya, dekorrelyatsiya)ning ham, o'zlashtirma so'zlarga xos morfem tarkiblanish bilan



[https://orcid.org/  
0009-0002-5872-0767](https://orcid.org/0009-0002-5872-0767)

e-mail:  
[mansurbekmasharipov5002  
@mail.ru](mailto:mansurbekmasharipov5002@mail.ru)

bogʻliq qayta fahmlashlarning ham nutq jarayonida oʻziga xos tarzda amal qilishi hisoblanadi [1;4].

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Mahmudxoʻja Behbudiy publitsistikasidagi morfologik okkazional yasalmalarning yasalish xususiyati ularning quyidagi turlarini farqlashga imkon beradi:

1. Oʻzbek tilidagi unumli va kamunum yasalish andozalariga muvofiq yasalgan okkazonalizmlar. Bunday yasalmalar soʻz yasalishi paradigmasi talablariga muvofiqlik va nomuvofiqlik oppozitsiyasi asosida yuzaga kelgan.

**Koʻchalanmoq.** Shaxs, narsa-predmetda soʻz yasalish asosidan anglashilgan narsa, holat va shu kabilarning yuz berishi, unda shunday narsa, holatning paydo boʻlishi maʼnoli feʼl yasovchi *-lan* affiksining aniq va mavhum otlardan feʼl yasashi lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan. Mahmudxoʻja Behbudiy “Oyina” jurnalining 1914-yil 27-sentabrda eʼlon qilingan “Ismoilbek hazratlari” nomli maqolasida “*moʻysafid boʻlmoq*”, “*qarimoq*” tushunchasini ifodalash uchun ushbu yasalish qolipidan foydalanib, “*koʻchalanmoq*” okkazonalizmini yasagan. Albatta, bu maʼno ramziy, ammo yasalma favqulodda va originaldir: “*Hamdulloh Subhibek huvviyatimizni bayon qilib ekan. Muloqot asnosinda derdilar: “Na uchun bu qadar tez koʻchalanmoq? Yaʼni na uchun muncha tez moʻysafid boʻlmoq, -dedilar”* [3;19]. Maqolalar matnida uchragan “*boshqalandi*”, “*natijalanmoq*”, “*ziyolanturmak*” feʼllari ham shu qolip asosida yasalgan okkazonalizmga misol boʻla oladi: “*Besh asr ichinda bu kashfiyotlar sababi ila hikmat va falsafa ahlining aqidasi boshqalandi*” [2;407]; “*Bu til masalasi Rusiya musulmonlari matbuotigʻa bir xeyli bahs boʻlub, feʼlan va amalan avom tili va yoinki sodda til tarafdorlarini magʻlubiyati ila natijalanmoqdadir*” [3;31]; “*Oyina*” majallasining muharriri va noshiri samarqandlik Mahmudxoʻja butun Turkistonda islom olamini ilm nuri ila ziyolanturmak daʼvosinda edi” [3;62].

**Bechorachilik.** Oʻzbek tilida *-chilik* murakkab soʻz yasovchisi bilan asosdan anglashilgan narsa-hodisa, belgi bilan xarakterlanuvchi holatni ifodalovchi otlar yasalishi kuzatiladi: *kambagʻalchilik*, *yoʻqchilik*, *toʻqchilik* kabi. Biroq oʻzbek tilining amaldagi soʻz yasash meʼyorlarida belgi ifodalovchi “*bechora*” soʻziga *-chilik* affiksini qoʻshib yangi soʻz yasalishi modeli mavjud emas. Adib publitsistikasida bunday model asosida okkazonal yasalish yuzaga kelgan: “*Shahar va sahroyi xalq-*

*larimizni qadimgidek tinch va xotirjam, beparvolik ilan oʻz bechorachiliklarigʻa yurganlarini koʻrub turubmiz*” [2;207].

**Koʻrishma.** Feʼlning *-sh (-ish)* affiksi bilan hosil qilingan harakat nomi shakliga *-ma* affiksi bilan feʼldan anglashilgan ish-harakatning nomini bildiruvchi otlar yasaladi: *otishma*, *yozishma* kabi. Muallif mazkur yasalish modeli asosida “*koʻrishma*” otini yasaganki, nutqiy qoʻllanishda yasalgan bu leksemaning mavjud lugʻatlarda aks etmaganligi, uning okkazonal yasalma ekanligini tasdiqlaydi: “*Shoʻyla koʻrishmalar va mukolamalar xususiy suratda davom etdi. Yoshlar tarafindin ufoq bir majlis edulub, mehmonimiza ziyofat verildi*” [2;365].

**Kampirona.** *-ona* affiks yordamida yasalgan ravishlar harakat-holatning asos bildirgan maʼnodagi tarzda bajarilishini bildiradi: *doʻstona*, *mardona* kabi. Oʻzbek tilidagi bunday kamunum yasalish andozasi asosida yasalgan “*kampirona*” leksemasi adabiy til uchun meʼyor emas, yaʼni bunday ravish yasalish hodisasi kuzatilmaydi. Muallif qoʻllagan mazkur leksemani ham gʻayriodatiy yasalgan leksemalar qatoriga kiritish mumkin: “*Xalqimiz, xususan, mullolari-miz ushbu maktabni yomonlasalar, koʻr-koʻrona, kampirona yomonlab yurganlari uchun alarni ahvoligʻa diqqat boʻlurmiz*” [2;308].

**Papiruskash.** *-kash* affiksi asosdan anglashilgan ish, mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnosidagi ot yasaydi. Muallif ruscha oʻzlashma *-papiros* leksemasiga *-kash* qoʻshimchasini qoʻshish orqali “*papiroskash*” okkazonal yasalmasini yaratgan. Bu leksema ijodkor nutqi uchungina xosligi, oʻzbek tili soʻz yasalish tizimidagi nomutanosiblikning oʻziga xos ifodasi sifatida yuzaga chiqqan: “*Papiruskashlarning koʻpligidanmi yoinki tumovdanmi, tiyotr salonida yoʻtal sadolari ziyoda edi*” [3;26].

**Zavqparast.** *-parast* affiksi asosdan anglashilgan narsa-hodisaga berilgan, unga eʼtiqod qiluvchi shaxs maʼnosidagi ot yasaydi. Muallif mazkur leksema orqali amalda yasalmagan va qoʻllanmagan, yasalgan taqdirda ham til lugʻat fondiga oʻtish imkoniyatiga ega boʻlmagan “*zavqparast*”, “*nafsparast*”, “*moziyparast*” kabi okkazonal yasalmalarni qoʻllagan: “*Bul alarni zamonagʻa muvofiq turmagonlarining va magʻrur boʻlub, ilm va fan oʻrnigʻa safohat va zavqparastgʻa mayl etgonlarining jazosi edi*” [3;51]; “*Missonerlar ila bizning nafparast baʼzi ulamolarimiz bul maqsad – zakundan*

moddan ziyoda istifoda etdilar” [2;492]; “**Moziy-parastlarga** aytarmizki, iddaoi moziy qoidadin emas” [2;295].

**Borgoh.** Bu leksema fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar qolipida *-goh* affiksi yordamida yasalgan. Yasovchi vosita esa aynan *saylgoh, sayrgoh, janggoh* kabi o‘zlashma so‘zlar tarkibidagina bo‘lgan va o‘rin-joy oti yasashga xizmat qilgan. “*Bor*” buyruq maylidagi fe‘l asosiga *-goh* affiksining qo‘shilishi va buning natijasida “*borgoh*” o‘rin-joy otining hosil qilinishi muallifning publitsistik nutqi uchungina xos. Bu bilan adib tasodifan so‘z yasaliş hodisasini amalga oshirgan: “*Bog‘dod va atrofinda yolg‘uz ikki-uch xalifa tarafindin bino qilingan borgohlar bo‘lub, bularning masjidi, daxmalari, dorush-shifosi, chahorsularini shunga qiyos qilmak kerakdur*” [3;55].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalari matnida egalik yoki ega emaslik belgisini hamda nisbiy belgi bildiruvchi sifat turkumiga oid okkazonal yasalmalar ham mavjud bo‘lib, ular *bo-, no-* old qo‘shimchalari bilan yasalgan. Ularning aksariyati an‘anaviy sifat yasaliş qolipi asosida, shuningdek, o‘zbek tili so‘z yasaliş andozalariga mos kelmaydigan yasaliş modeli asosida yuzaga kelgan.

**Nointizom.** Bu yasalmaning o‘zak morfemasi “*intizom*” so‘zi bo‘lib, arab tilidan o‘zlashgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur leksema asosida yasalgan “*intizomli*” so‘ziga “*intizomni mustahkam tutuvchi, unga amal qiluvchi, bo‘ysunuvchi, tartibli*” deb izoh berilgan va uning antonimi “*intizomsiz*” so‘zi ekanligi ko‘rsatilgan [4;218]. M.Behbudiy matnda “*intizomsiz*” leksemasi ifodalagan “*intizomga amal qilmaydigan, bo‘ysunmaydigan, tartibsiz*” semasini ifodalashda “*nointizom*” okkazonalizmidan foydalangan: “*Ko‘rgan nuqs va ko‘tohlklari va maktabni nointizomligi to‘g‘risida bayoni afkor etmoqlari marjdur*” [2;302]. *-no* old qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan g‘ayriodatiy yasalişlarni “*nomumkin*”, “*nooshno*” yasalmalarida ham ko‘rishimiz mumkin: “*Vujudi sobit va adami nomumkin bir Ollohning vujudini qalblariga jo qilg‘onlarga ta‘sis etilgan*” [2;55]; “*Farg‘ona muallim va mutaallimlari forsiyg‘a nooshno bo‘lub forsha bayon qiladurlar*” [2;298].

**Bonizomlik.** Otdan sifat yasovchi *-bo* old qo‘shimchasi fors-tojik tilidan o‘zlashgan, o‘zbek tilida kamunum yasovchi morfema hisoblanadi. Bu

yasovchi morfema Shaxs yoki narsa-predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligi, unda shunday narsa borligi bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini bildiruvchi sifatlari yasovchi *-li* qo‘shimchasi bilan sinonimlik hosil qila oladi: *boobro‘-obro‘li* kabi. Muallif “*nizom asosida ishlash*” ma‘nosini ifodalashda shaxsiy-ijodiy yondashuvi asosida “*bonizom*” yasalmasini qo‘llaydi: “*Shul to‘g‘rig‘a nihoyat tinch, tartiblik va bonizomlik ila harakat qilmoqqa mashvarat berdilar*” [2;234].

**Foydaxo‘r.** Mahmudxo‘ja Behbudiy “Omolimiz yoinki murodimiz” nomli maqolasida “*foydaxo‘r*” okkazonalizmini yasaydi. Bu so‘zning hozirgi o‘zbek tilida uchramasligi ham uning okkazonal leksema ekanini tasdiqlaydi. Matnda bu so‘zni yasash ma‘lum darajada salbiy ottenkani hosil qilish talabi bilan ham yuz bergan: “*Bonk, firma foydaxo‘rniki. Tabiiy, bularga pullarini bermoq lozim, na berilur?*” [2;412].

**Muhokama.** 2. Analogiya asosida so‘z qo‘shish yoki so‘z birikmasini lug‘aviy birlikka aylantirish yo‘li bilan yasalgan qo‘shma okkazonal yasalmalar. Adib publitsistikasida qo‘shma, juft so‘z shaklidagi, so‘z birikmalarini qo‘shib yozilishidan hosil bo‘lgan okkazonalizmlar ham ko‘zga tashlanadi:

*ilm + do‘st = ilmdo‘st.* “*Bular faqat ilmning sharofati va Rusiya ma‘murlarining ilmdo‘stligining asaridur*” [2;237].

*xabar + do‘st = xabardo‘st.* “*Bizni fahmi-mizcha, usuli jadid va qadim maktablariga o‘qulmog‘i nofe‘ va har bir ahli xirad va xabardo‘st uchun nazardan o‘tkarmoq foydadan xoli emasdur*” [2;229].

*kam + xabar = kamxabar.* “*Fazlulloh ibn Yunus sarvarliginda “Qiroatxona” ochilmish xabarini o‘qub xursand bo‘lub eduk va qiroatlaridin kamxabar qolishimiz uchun mutaassifmiz*” [2;191].

*xush + gumon = xushgumon.* “*Ey, yoshlar! Sizlar tajribasizlik etib va o‘z orangizda ixtilof ko‘rsatib, xalqning o‘z borangizdagi xushgumonligini, afsuski, yo‘qotdingiz*” [2;472].

*nim + boy = nimboy.* “*Nimboylar sinar, tiriklikinda bo‘lmasa, o‘lganda sinar, ahli va ayoli darbadar bo‘lur*” [2;413].

Yuqorida keltirilgan *ilmdo‘st, xabardo‘st, kamxabar, xushgumon, nimboy* kabi leksemalar nutqiy hodisa sifatida so‘zlarni qo‘shish orqali hosil qilingan g‘ayriodatiy qo‘llash va yasalişlar hisoblanib, tildagi barqarorlik, doimiylik, odatiylik, ma-



romlilik hamda shaxsiy-ijodiylik o'rtasidagi uzviy ziddiyatning o'ziga xos ifodasi hisoblanadi.

3. Kalkalab olishda tarjima qilish tufayli yuzaga kelgan okkazionalizmlar. Davr adabiy tilining leksik-semantik, morfologik-sintaktik me'yorlari hali to'la shakllanmagan mazkur davrida arabcha, fors-tojikcha, ruscha-baynalmilal o'zlashma leksemalar o'rniga turkiycha muqobil topish, muqobil topilmaganda ularni kalkalash yo'li bilan me'yor sifatida adabiy tilga olib kirish harakati ham bo'lgan. Mana shu harakatlar natijasi o'laroq Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida bir qator o'zlashma so'zlar kalkalash yo'li bilan o'zbek tiliga o'girilgan va buning natijasida okkazional yasalmalar vujudga kelgan. Ularni tuzilish jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

a) kalkalashda so'z holida yuzaga kelgan okkazional yasalmalar: *"Na uchun toqat qilsunkim, musulmonlar soldatxonalarig'a (chastg'a) kelib, qo'llari ila olib, muloyim va yumshoq bastarlar ustida istirohat etsunlar. Oh, na badbaxtlikdur!"* [2;488]; *"Bolalar uchun tarbiyatxona (pansion) ochmoq kerak va bu tarbiyatxonalar zamoncha milliy va diniy ruhda bo'lushi kerakdur"* [2;414]; *"Ushbu kitobcha Rusiyadagi barcha musulmoniy kitobfurushlarg'a va Buxoro, Toshkand sahhoflarig'a, "Turkiston" gazetxonasig'a (redaksiyasig'a) yuborildi"* [2;434]. b) kalkalashda so'z birikmasi holida yuzaga kelgan okkazional yasalmalar: *"325 raqamli iona qog'ozi (подписной лист) ila iona to'plab yubormoqni va "Oyina" ila dalolat etmoqni iltimos etar"* [2;413]; *"Podshohlik mahkamalarda musulmon ma'murlari, musulmon sudyalari muqolovat muharriri (notarius) kerakdur"* [2;434]. d) kalkalashda izofali konstruksiya shaklida yuzaga kelgan okkazional yasalmalar: *"Majlisi muassison (учредительное собрание)g'a topshu-rub, aning mustahkam qilmoqni talab etmoqlari kerakdur"* [2;485]; *"Bizlar tojiri zamoniy (kommersant) emas, balki bizlarg'a dehqonlik lozimdur"* [2;421]. e) kalkalashda o'zlashma asosga o'zbek tilidagi yasovchi vosita qo'shilishi bilan yuzaga kelgan okkazional yasalmalar: *"Bizg'a muvofiq zamona odamlar kerak. Ya'ni musulmon do'xtur, musulmon muhandis, musulmon planchilar"* [2;434]; *"Mamlakatimizning zakonchishunos boylari, shariatshunos qozilari, za-monashunos taraqqiyparvarlari g'ofil bo'lmasun"* [2;150].

**Natijalar.** Yuqorida ta'kidlanganidek, okkazional yasalmalar leksemaning tildagi ko'rinishi va

ma'nosiga xos bo'lgan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, so'zni yangicha shaklda qo'llashi va shu leksema mazmuniga yangicha "tus" berishi natijasida yuzaga keltirilgan so'z shakli va uning sun'iy ma'nosidir [5;17]. Demak, *okkazional yasalmalar shaxsiy-ijodiy, matniy-uslubiy hodisa, nutqiy-uslubiy vosita sifatida barqaror, yagona, majburiy norma emas. Balki funksional-stilistik vosita sifatida publitsistik matnda ham muayyan vazifa bajaradi.*

**Xulosa.** Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasi tilini kuzatish jarayonida tilimizda publitsistik uslubning shakllanishi, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga moslashish jarayoni naqadar murakkab kechganligini ko'ramiz. Bunda publitsistik nutqda, bir tomondan, chetdan o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj zarurati, ikkinchi tomondan, o'zlashma so'zlarni milliyashtirish harakati, uchinchi esa, jamiyatdagi o'zgarishlar ta'sirida yuzaga kelgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun yangi leksik kategoriyalarni yaratish masalasi dolzarblik kasb etganligi ko'rinadi. Ma'rifatparvar adib publitsistik asarlarida faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yasashga, original tarzda qo'llashga intilgan. Adibning umumadabiy va uslubiy maromlardan ijodiy chekinib, publitsistik nutq nafosatini ko'rsatish uchun nutqiy g'ayriodatiy yasalmalarni yuzaga keltirganligi, uning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясашиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.
2. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 б.
3. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 2-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 312 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдлик. I-V жилдлар. – Тошкент: О'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriёти, 2020.
5. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Тошкент: ТДПУ, 2004. – 176 б.